

KITOB O'QISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Mirzaliyeva Dilafrō'z Muhammadjonovna

KIUT o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17840386>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitob o'qish jarayonida boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, pedagogik texnologiyalar va interfaol yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarga badiiy matn bilan ishlash, savollar yaratish, muallif fikriga munosabat bildirish, matn asosida muammoli vaziyatni yechish kabi jarayonlar mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi asosiy omil ekanligi yoritilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar —“INSERT”, “Klaster”, “Oltita shlyapa”, “Aqliy hujum”, “Konseptual xarita” kabi metodlarning o'qish darslarida qo'llanishi ilmiy-amaliy nuqtai nazardan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ushbu metodlarning o'quvchilarda mustaqil fikr, tahlil, mantiqiy xulosa chiqarish va muammoga ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, kitobxonlik, o'qish savodxonligi, interfaol metodlar, matn tahlili, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрены методы развития навыков самостоятельного мышления у учащихся в процессе чтения книг. Анализируются педагогические технологии и интерактивные методы, способствующие формированию критического мышления, умения анализировать текст и выражать собственное мнение. Обоснована эффективность таких технологий, как «INSERT», «Клстер», «Шесть шляп», «Ментальная карта» и других. Результаты исследования показывают, что использование данных методов положительно влияет на формирование у школьников самостоятельного мышления и читательской грамотности.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, читательская грамотность, анализ текста, интерактивные методы, педагогические технологии.

Annotation. This article examines methods for developing independent thinking skills in students through the process of reading books. It highlights the importance of working with literary texts, generating questions, expressing opinions about the author's ideas, and solving problem-based situations created from the text. Modern pedagogical technologies such as “INSERT”, “Cluster”, “Six Thinking Hats”, “Mind Mapping”, and “Conceptual Map” are analyzed from a scientific and practical perspective. The results show that these methods effectively enhance students' independent thinking, analytical skills, logical reasoning, and creative problem-solving abilities.

Keywords: independent thinking, reading skills, textual analysis, interactive methods, literacy development.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tafakkur doirasining kengayishi va axborotni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishi ta'lim tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlash shaxsning faolligini oshiradi, ijodiy yondashuvni kuchaytiradi va o'quv faoliyatida ijobiy natijalarga erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Pedagog olim A. Abduqodirov o'quvchilarda mustaqil fikr

yuritish o'qish jarayonining eng asosiy maqsadi ekanligini ta'kidlab, kitob bilan ishlashni tafakkurni rivojlantiruvchi omil sifatida ko'rsatadi.[1]

Kitob o'qish jarayonida o'quvchi matnni idrok etadi, muallif g'oyasini tahlil qiladi, baho beradi va shaxsiy xulosa chiqaradi. Bunday faol fikrlash jarayonlari mustaqil tafakkurni shakllantiradi. Shuningdek, psixolog A. Jalolovning ta'kidlashicha, o'quvchining intellektual rivoji bevosita matn bilan ishlash, savol yaratish, izlanish va tahlil qilish darajasiga bog'liqdir.[2] Shu bois o'qish savodxonligi va mustaqil fikrlash o'quvchilar shaxsiy rivojining ajralmas qismi hisoblanadi. O'qish jarayonida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Professor S. Nishonova o'quv jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish o'quvchining fikrini faollashtirib, matn ustida mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatini kengaytirishini alohida qayd etadi.[3] Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan "INSERT", "Klaster", "Konseptual xarita", "Aqliy hujum" kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini jadallashtiradi.

Kitob o'qish o'quvchini faqat tez o'qishga emas, balki mazmunni tahlil qilish, umumlashtirish, sabab-oqibatlarini ko'ra bilish va ijodiy yondashish kabi ko'nikmalarga o'rgatadi. Pedagog R. Yo'ldoshevaning fikricha, o'quvchi matnni mustaqil o'rganganida uning fikrlash jarayoni faollashadi, bilimni o'zlashtirish darajasi esa sezilarli ortadi.[4] Shu nuqtai nazardan, kitobxonlik madaniyati o'quvchining intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari, ta'lim hujjatlari ham ushbu yo'nalishning dolzarbligini oshirmoqda. "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish" davlat dasturida ham kitob mutolaasi orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.[5] Mazkur maqolada kitob o'qish jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'llaniladigan samarali metodlar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mustaqil fikrlash masalasi o'zbek pedagogikasi va psixologiyasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. A. Ishmuxamedov mustaqil fikrlashni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida o'quvchini izlanishga yo'naltiruvchi metodlarning tizimli qo'llanishini ko'rsatib, ayniqsa o'qish jarayonida matn ustida mustaqil ishlashning ahamiyatini ta'kidlaydi.[6] Uning fikricha, o'quvchi faqat tayyor bilimni eslab qolganda emas, balki uni tahlil qilib, shaxsiy xulosa chiqarganda mustaqil fikrlash paydo bo'ladi. Shuningdek, professor O. Tolipovanning tadqiqotlarida kitob o'qish jarayonida savol-javob, tahlil, taqqoslash, baholash faoliyatlari mustaqil fikrni shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida e'tirof etiladi.[7] U matn asosida muammo qo'yish, matndagi qahramonlar harakatiga turli nuqtai nazardan yondashish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Psixologiya fanlari doktori Sh. Rahmonqulov esa o'quvchining tafakkuri o'qigan matnni qayta ishlash, eslab qolish va ijodiy yondashuv darajasi bilan belgilanadigan murakkab jarayon ekanini ta'kidlab, kitob o'qish o'quvchi ongida tasavvur, mantiqiy bog'lanishlar va tahliliy fikrlarni faollashtirishini ilmiy tajribalar bilan isbotlaydi.[8] Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi sohasidagi tadqiqotlarda — xususan, G'. Yo'ldoshev va S. Mamarasulovlar tomonidan — o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun "INSERT", "Klaster", "Baliq skeleti", "Oltita shlyapa", "Tarmoqlash" kabi metodlar yuqori samara berishi qayd etilgan.[9] Ularning fikriga ko'ra, interfaol metodlar o'quvchini tayyor fikrni qabul qiluvchidan faol tahlil

qiluvchiga aylantiradi. Yana bir muhim jihat shuki, adabiyotlarda kitobxonlik madaniyati o'quvchilarning shaxsiy rivojiga, xulqiy fazilatlariga va ijtimoiy faolligiga ham katta ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumotlar uchraydi. M. Quronovning ta'kidlashicha, o'qigan bola mustaqil fikr yurita oladi, dalil asosida o'z nuqtai nazarini himoya qila oladi va ijtimoiy hayotda faol bo'ladi.[10]

Ushbu ilmiy manbalar umumiy xulosaga kelishga imkon beradi: kitob o'qish jarayonida mustaqil fikrlashning rivojlanishi o'quv faoliyati, tafakkur jarayoni va psixologik rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismidir.

METODOLOGIYA.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahlil metodi; *Mavzuga oid ilmiy manbalar, pedagogik texnologiyalar, psixologik-nazariy qarashlar tahlil qilindi.*

Kuzatish metodi; *Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning matnni idrok etish jarayoni, savollarga javob berish va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalari kuzatildi.*

Taqqoslash metodi; *Zamonaviy metodlar bilan an'anaviy o'qish yondashuvlari o'zaro solishtirildi.*

Pedagogik tajriba elementi; *INSERT, klaster, oltita shlyapa kabi metodlar dars jarayonida qo'llanildi va ularning samaradorligi tahlil qilindi.*

NATIJALAR. Tadqiqot davomida kitob o'qish jarayonida qo'llanilgan metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalariga quyidagi ta'sirlarni ko'rsatdi:

Matnni tushunish darajasi oshdi; *O'quvchilar matnni nafaqat o'qib chiqishdi, balki mazmunini tahlil qila boshlashdi.*

O'quvchilarda savol berish ko'nikmasi rivojlandi; *INSERT metodidan foydalanilganda o'quvchilar matnga doir o'z savollarini o'rta tashlay boshlashdi.*

Xulosa chiqarish malakasi kuchaydi; *Klaster va konseptual xarita metodlari orqali o'quvchilar asosiy g'oyani mustaqil ajratib olishdi.*

Tanqidiy fikrlash shakllandi; *Oltita shlyapa texnologiyasi o'quvchilarni bir muammoni turli rangdagi nuqtai nazardan ko'rib chiqishga o'rgatdi.*

Matn asosida ijodiy yondashuv paydo bo'ldi; *O'quvchilar matndagi voqealarga boshqa yakun, yangi qahramon yoki yangi vaziyat taklif qilishni boshlashdi.*

MUHOKAMA. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kitob o'qish jarayonida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchi yo'naltiruvchi, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'lishi kerak. An'anaviy yondashuvda o'qituvchi matnni tushuntiradi, o'quvchi esa tayyor xulosani qabul qiladi. Zamonaviy metodlarda esa o'quvchi matn ustida mustaqil fikr yuritadi, o'z savolini yaratadi, shaxsiy nuqtai nazarini bildiradi, bu esa uning tafakkurini yanada faollashtiradi. Interfaol metodlarning barchasi o'quvchini faol fikrlashga chorlaydi. O'quvchi xato qilishdan qo'rqmaydi, fikr bildiradi, tahliliy qarashga ega bo'ladi. Bu jarayon uning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ ko'nikmalari, nutqi va hayotiy tajribasini ham boyitadi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, o'qish darslarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun birgina badiiy matn yetarli emas. Muammo ustida ishlash, qiyoslash, dalillash, ijodiy topshiriqlar, rolli o'yinlar kabi faol metodlar ko'proq samara beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Kitob o'qish jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, muntazam ravishda badiiy va informativ matnlarni o'qish,

ular ustida fikr yuritish, savol-javoblar tashkil etish, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning tafakkur faoliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda kitob o'qish jarayoni shunchaki matnni idrok etish emas, balki mustaqil fikrni shakllantirishning eng samarali vositasidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlardan – “Aqliy hujum”, “Tahlil va muhokama”, “Venn diagrammasi”, “INSERT”, “Konseptual xarita”, “Oltita shlyapa” kabi texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash sifatini oshiradi, matnga ijodiy yondashish kompetensiyalarini kengaytiradi. Shuningdek, jamoaviy o'qish, oilaviy mutolaa, rolli o'yinlar, qahramonlar xarakterini taqqoslash va voqealar rivojini prognoz qilish kabi mashg'ulotlar ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kitob o'qishga ijobiy munosabat, qiziqish va ichki motivatsiyani shakllantirish o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlarida ham muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu bois, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning individual o'qish tezligi, matnni anglash darajasi, tahlil qilish ko'nikmalari muntazam o'rganib borilishi va shu asosda mos metodlar tanlanishi lozim.

Tavsiya qilinadiki, kitobxonlikni rivojlantirish jarayoni faqat dars bilan cheklanib qolmasligi, balki maktab va oila hamkorligida qamrab olinishi kerak. O'qituvchilar tomonidan har bir o'quvchi uchun shaxsiy o'qish yo'l xaritasi ishlab chiqilishi, maktab kutubxonalarining faoliyati modernizatsiya qilinishi hamda o'qish madaniyatini oshirishga qaratilgan turli tanlov, loyihalar, ijodiy uchrashuvlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy xulosa shuki, zamonaviy metodlar asosida tashkil etilgan kitob o'qish jarayoni o'quvchilar mustaqil fikrlashining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni muloqotga kirishuvchi, tahlil qiluvchi, o'z fikriga ega bo'lgan shaxs sifatida rivojlantiradi. Shu asosda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar tizimli qo'llanilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik salohiyati va tafakkur faoliyati barqaror oshadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abduqodirov A. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish tamoyillari. – Toshkent, 2019.
2. Jalolov A. Umumiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Nishonova S. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Yo'ldosheva R. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari metodikasi. – Toshkent, 2017.
5. “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish” davlat dasturi. – Toshkent, 2021.
6. Ishmuxamedov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
7. Tolipova O. O'qish jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodlari. – Toshkent, 2016.
8. Rahmonqulov Sh. Psixologik tafakkur jarayonlari. – Toshkent: Fan, 2019.
9. Yo'ldoshev G., Mamarasulov S. Interfaol metodlar tizimi. – Toshkent, 2018.
10. Quronov M. Kitobxonlik madaniyati va shaxs tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.